

9-sinf. Ona tili. 3-BSB. (50 ball)

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR USTIDA ISHLASH

BSB bo'yicha o'quvchiga qo'yiladigan talablar:

- nutqdagi g'alizlikni aniqlay oladi;
- ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonim (ma'nodosh)ini aniqlay oladi;
- gap bo'laklarini aniqlay oladi;
- fe'ning vazifa shakllari: sof fe'l va harakat nomini aniqlay oladi;
- fe'ning vazifa shakllari: ravishdosh va sifatdoshni aniqlay oladi.

1. Quyidagi matnni diqqat bilan o'qing. Undagi nutqiy g'alizlikni aniqlang va har birini to'g'ri shaklda yozing (10 ball).

Hozirgi davrda yoshlar orasida kitob o'qish madaniyatining pasayib borayotganligi jamiyatimiz uchun dolzarb muammo bo'lib hisoblanadi. Shu sababga ko'ra ta'lim muassasalarida o'quvchilarni kitob o'qishga rag'batlantirish maqsadida har xil qiziqarli va samarali tadbirlar tashkil qilinmoqda. Bu tadbirlar orqali o'quvchilarning o'qishga bo'lgan ishtiyoqini oshirishda muhim ahamiyatga egadir. Har bir shaxs o'z hayotining davomiyligida kitob bilan muntazam aloqada bo'lishi lozimdir.

2. Gap tarkibida ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimini yozing (10 ball).

Dunyoda xalq duosini olishdan ortiq savob yo'q.

Dunyoda xalq qarg'ishiga qolishdan ortiq gunoh yo'q.

3. Berilgan gaplarni sintaktik jihatdan tahlil qiling (10 ball).

- O'z-o'zini maqtash kishini yerga uradi.
- Aslida serhimmat bo'lgan kishilar hech vaqt kerilmaydilar.
- O'z yaxshiliklari bilan maqtangan odamdand qo'rqaver.
- Odamlar hamma vaqt ham boshqalar o'ylaganchalik bo'lavermaydilar.
- Yaxshisi, biz o'zimizni maqtamaylik, birov bizni maqtasin.

4. Gaplar tarkibidan sof fe'l va harakat nomini aniqlang (10 ball).

- Odam o'zini-o'zi ko'tara olmaganidek, o'zini-o'zi maqtamasligi ham kerak. Aksincha, o'zini maqtashga har qanday urinish kishilar ko'zi o'ngida uning obro'yini to'kadi.
- Insondagi nafsoniyat, o'zini qaror toptirish uchun sarflangan iroda taqdir ezib tashlamasligi uchun qarshilik ko'rsatishida unga kuch-quvvat beradi.

Sof fe'l	Harakat nomi

5. Berilgan gaplardan ravishdosh va sifatdoshni aniqlang (10 ball).

- Yoshlikda shunday ish qilginki, yillar o'tib, keksalik keltirgan zararning o'rnini qoplaydigan ish bo'lsin. Keksalikning ozig'i donolik ekanini yodda tutib, yoshlikda shunday harakat qilginki, keksalik oziqsiz qolmasin.

- Shunday odamlar borki, ular umidsizlangan yoki asabiylashgan holda, o'z ahvollaridan zavqlanadilar, hatto faxrlanadilar. Bu seni pastga olib ketayotgan ot jilovini qo'yib yuborib, yana uni qamchilashing bilan baravardir.
- Yoshlikdagi qusurlarni qariguncha saqlab qolish kerak emas, chunki qarilikning o'z qusurlari bo'ladi.

Ravishdosh	Sifatdosh

Baholash mezonlari (50 ball)	
1. Matndagi nutqiy g'alizlikni aniqlab, har birini to'g'ri shaklda yozishi	10 ball
Matndagi nutqiy g'alizlikni to'liq va to'g'ri aniqlagan bo'lsa–	10 – 8 ball
Matndagi nutqiy g'alizlikni aniqlashda xatoliklarga yo'l qo'ygan bo'lsa –	7 – 5 ball
Matndagi nutqiy g'alizlikni deyarli aniqlay olmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
2. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimi (ma'nodosh)ini aniqlay olishi	10 ball
Ajratib ko'rsatilgan barcha so'zlarning sinonimini to'g'ri yozgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimini qisman to'g'ri yoza olgan bo'lsa–	7 – 5 ball
Ajratib ko'rsatilgan so'zlarning sinonimini deyarli aniqlay olmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
3. Berilgan gaplarni sintaktik jihatdan tahlil qilishi	10 ball
Gaplarni sintaktik jihatdan to'liq va to'g'ri tahlil qila olgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Gaplarni sintaktik jihatdan to'liq tahlil qila olgan, ammo ayrim o'rinlarda xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsa –	7 – 5 ball
Gaplarni sintaktik jihatdan deyarli tahlil qila olmagan bo'lsa –	4 – 1 ball
4. Gaplardan sof fe'l va harakat nomini aniqlay olishi	10 ball
Berilgan gaplardan sof fe'l va harakat nomini to'liq va to'g'ri aniqlay olgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Berilgan gaplardan sof fe'l va harakat nomini qisman aniqlagan bo'lsa –	7 – 5 ball
Gaplardan sof fe'l va harakat nomini aniqlashda bir talay xatolikka yo'l qo'ygan bo'lsa –	4 – 1 ball
5. Gaplar tarkibidan ravishdosh va sifatdoshni aniqlay olishi	10 ball
Gaplar tarkibidan ravishdosh va sifatdoshni to'liq va to'g'ri aniqlay olgan bo'lsa –	10 – 8 ball
Gaplar tarkibidan ravishdosh va sifatdoshni qisman aniqlagan bo'lsa –	7 – 5 ball
Gaplar tarkibidan ravishdosh va sifatdoshni deyarli aniqlay olmagan bo'lsa–	4 – 1 ball
Jami:	50 ball